

ONA TILI DARSLARIDA MUSTAQIL TA'LIM ASOSIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Xadicha Jabborovna Sattorova,

Nizomiy nomidagi O'zMPU

*Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi
kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarida mustaqil ta'lim asosida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarida mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarning kreativ fikrlashi, mustaqil mushohada yuritishi va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, suhbat hamda amaliy tajriba metodlaridan foydalanildi. Natijalarga ko'ra, muammoli topshiriqlar, ijodiy yozuv mashqlari, loyiha ishlari va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Shuningdek, mustaqil ta'lim asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning til birliklaridan ijodiy foydalanish malakasini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari ona tili ta'limi metodikasini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, ijodiy faoliyat, ona tili darslari, kreativ fikrlash, interfaol metodlar, nutqiy kompetensiya, ijodiy yozuv, pedagogik texnologiyalar.

Резюме. В данной статье анализируются методы развития творческой деятельности учащихся на уроках родного языка посредством самостоятельного обучения. Цель исследования – выявить методологические возможности развития творческого мышления, самостоятельного рассуждения и речевых компетенций учащихся путем эффективной организации процесса самостоятельного обучения в общеобразовательных школах. В ходе исследования использовались методы педагогического наблюдения, сравнительного анализа, интервью и практического опыта. Результаты показали, что использование задач, основанных на решении проблем, упражнений по творческому письму, проектной работы и интерактивных методов значительно повышает вовлеченность учащихся и развивает навыки самостоятельного мышления на уроках. Кроме того, было продемонстрировано, что уроки, организованные на основе самостоятельного обучения, способствуют развитию у учащихся компетенции в творческом использовании языковых единиц. Полученные результаты имеют важное научное и практическое значение для совершенствования методики преподавания родного языка.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, творческая деятельность, уроки родного языка, творческое мышление, интерактивные методы, речевая компетенция, творческое письмо, педагогические технологии.

Abstract: This article analyses methods for developing pupils' creative activity in mother-tongue lessons through independent learning. The aim of the study is to identify the methodological possibilities for developing pupils' creative thinking, independent reasoning and speech competencies by effectively organising the independent learning process in general education schools. During the research, the methods of pedagogical observation, comparative analysis, interviews and practical experience were used. The results revealed that the use of problem-based tasks, creative writing exercises, project work, and interactive methods significantly enhances students' engagement and independent thinking skills in lessons. Furthermore, it was demonstrated that lessons organised on the basis of independent learning contribute to the development of pupils' competence in the creative use of linguistic units. The research findings have significant scientific and practical importance for the improvement of mother tongue teaching methodology.

Keywords: independent learning, creative activity, mother tongue lessons, creative thinking, interactive methods, speech competence, creative writing, pedagogical technologies.

Kirish. Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va erkin mushohada yurita olishi muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ona tili darslari o'quvchilarning nafaqat savodxonligini oshirish, balki ularning tafakkuri, nutq madaniyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham alohida o'rin tutadi. Shu sababli dars jarayonida o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanadigan va fikr ishlab chiqadigan subyekt sifatida shakllantirish zarurati ortib bormoqda.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishi ona tili fanini o'qitishda ham yangi metod va texnologiyalarni qo'llashni talab etmoqda. An'anaviy dars shakllarida o'quvchi ko'proq tinglovchi vazifasida qolib ketayotgan bo'lsa, mustaqil ta'limga asoslangan yondashuvlarda uning faolligi, tashabbuskorligi va ijodiy faoliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijodiy yozuv, muammoli topshiriqlar, kichik loyiha ishlari va interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Ona tili darslarida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish o'quvchilarning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga, o'z fikrini erkin ifodalashiga hamda til birliklaridan amaliy va ijodiy foydalanish malakasining shakllanishiga yordam beradi. Biroq amaliyotda bu jarayonni samarali tashkil etish metodikasi yetarli darajada takomillashmaganligi ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan mazkur mavzuni ilmiy-metodik jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim asosida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalasi jahon pedagogikasida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Xorijiy olimlar tomonidan ta'lim jarayonida o'quvchi faolligini oshirish, kreativ fikrlashni shakllantirish hamda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirishga oid turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, J.Dewey, J.Bruner, L.Vygotskiy kabi tadqiqotchilar o'quvchining bilish faoliyatida mustaqil izlanish va amaliy faoliyatning ahamiyatini asoslab berganlar. Ularning qarashlarida ta'lim jarayoni tayyor bilimni uzatish emas, balki o'quvchini fikrlashga, tahlil qilishga va muammoni mustaqil hal etishga yo'naltiruvchi jarayon sifatida talqin qilinadi. So'nggi yillarda Yevropa va Osiyo davlatlarida olib borilgan tadqiqotlarda ham kreativ pedagogika, learner-centered education hamda self-directed learning kabi yondashuvlarning samaradorligi alohida ta'kidlanmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari tomonidan ham mazkur masala pedagogik va metodik jihatdan keng tadqiq etilgan. Rus pedagog olimlari V.Suxomlinskiy, I.Lerner, M.Skatkin va boshqa tadqiqotchilar o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning ilmiy qarashlarida mustaqil ishlar o'quvchining tafakkurini rivojlantiruvchi, bilimni ongli ravishda egallashga xizmat qiluvchi vosita sifatida baholanadi. Shuningdek, ona tili va

adabiyot ta'limida ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar hamda nutqiy faoliyatni faollashtiruvchi metodlarning o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni alohida yoritilgan. MDH hududidagi zamonaviy tadqiqotlarda esa kompetensiyaviy yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etish masalalariga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda ham ona tili ta'limida mustaqil ta'lim va ijodiy faoliyatni rivojlantirish muammosi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, bu borada bir qator metodist olimlar tomonidan izchil tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, T.Almamatov, Q.M.Yadgarov va Sh.Almamatova tomonidan tayyorlangan "O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish" nomli metodik qo'llanmada ona tili darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda ijodiy tafakkurini shakllantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ona tili darslarida kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati A.Xasanova tadqiqotlarida yoritilib, bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi alohida ta'kidlanadi.

So'nggi yillarda ona tili darslarida ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari ham alohida ilmiy izlanishlar markazida bo'lib, masalan, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga bag'ishlangan maqolalarda o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undovchi topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va evristik metodlardan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Bundan tashqari, ona tili darslarida TRIZ texnologiyalari asosida o'quvchilarning tahliliy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda TRIZ asosidagi mashg'ulotlar o'quvchilarning muammoli vaziyatlarda mustaqil va ijodiy fikrlashini faollashtirishda samarali vosita sifatida talqin etiladi.

Ayni paytda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi ona tili darslarida mustaqil faoliyatga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash zaruratini yanada kuchaytirdi, bu esa metodik adabiyotlarda ona tili ta'limida ta'lim va tarbiya birligi, o'quvchilarning erkin fikrlashi, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish kabi vazifalarni metodik tizim darajasida belgilab beradi. Shu jihatdan qaraganda, ona tili darslarida mustaqil ta'lim asosida ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodlarini nazariy va metodik jihatdan tahlil qilish, mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish hamda ularning ta'lim amaliyotidagi imkoniyatlarini ochib berish mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilaydi.

Tadqiqot yondashuvi. Mazkur tadqiqotda ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalasi mustaqil ta'lim tamoyillari asosida nazariy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot yondashuvi mavjud ilmiy qarashlar, pedagogik konsepsiyalar hamda zamonaviy ta'lim tendensiyalarini qiyosiy o'rganishga tayangan holda shakllantirildi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijodiy fikrlashi

va mustaqil faoliyatini rivojlantirishda an'anaviy reproduktiv ta'lim usullariga nisbatan o'quvchi faolligiga asoslangan yondashuvlar samaraliroq hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotda o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik qarashlarga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik yo'nalishlardan biri sifatida ko'rib chiqish orqali mazkur yondashuvni ona tili darslariga tatbiq etish o'quvchilarda bilimni amaliy vaziyatlarda qo'llash, mustaqil fikr bildirish hamda nutqiy faoliyatni erkin tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishiga aniqlik kiritildi. Shuningdek, ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, mantiqiy tafakkuri va ijodiy yondashuvi ustuvor ahamiyat kasb etishi ilmiy qarashlarda alohida ta'kidlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi ham mazkur muammoning nazariy yechimlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv qo'llanilganda o'quvchining individual qiziqishi, qobiliyati va ijodiy imkoniyatlarini hisobga olishga erishiladi. Natijada o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrini asoslash hamda erkin mushohada yuritish kabi sifatlarni rivojlantirish imkoniyati kuchayadi. Ayniqsa, ijodiy yozuv, mustaqil matn yaratish va muammoli topshiriqlarga asoslangan faoliyat turlaridan foydalanish o'quvchilarning til birliklaridan ijodiy foydalanish malakasini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot yondashuvida interfaol metodlarning nazariy imkoniyatlari ham alohida ko'rib chiqildi. Pedagogik manbalarda qayd etilishicha, bahs-munozara, aqliy hujum, klaster, kichik guruhlarda ishlash kabi metodlarni mustaqil ta'lim bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday metodlar o'quvchilarda hamkorlikda ishlash, fikr almashish, muammoni turli nuqtayi nazardan baholash hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga imkon yaratadi.

Shunday qilib, mustaqil ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamda interfaol metodlarning o'zaro uyg'unligi ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning muhim nazariy asoslaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy tafakkuri va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkinligi ilmiy qarashlar asosida asoslanadi.

Natija. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ona tili darslarida mustaqil ta'lim asosida tashkil etilgan faoliyat o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlarda boshlang'ich va yuqori sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar, mustaqil o'qish, kitob mutolaasi, matn ustida mustaqil ishlash kabi shakllar ijodiy fikrlashni faollashtiruvchi bosh omil sifatida baholanadi.

Quyidagi jadval an'anaviy va mustaqil ta'limga asoslangan yondashuvlar o'rtasidagi asosiy farqlarni umumlashtiradi.

1-jadval: An'anaviy va mustaqil yondashuv taqqoslanishi

Ko'rsatkich	An'anaviy ta'lim	Mustaqil ta'limga asoslangan yondashuv
O'quvchi roli	Tayyor bilimni qabul qiluvchi	Bilimni izlovchi, tadqiqotchi
O'qituvchi roli	Asosiy axborot manbai, izoh beruvchi	Yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi
Faollik darajasi	Past, asosan tinglash va yozib olish	Yuqori, savol berish, izlanish, muhokama
Ijodiy fikrlash	Cheklangan, tayyor namunaga tayanadi	Yangi g'oya, muqobil yechim izlash rag'batlantiriladi
Mustaqil qaror qabul qilish	Kam, ko'proq o'qituvchi ko'rsatmasiga bog'liq	Ko'p, topshiriq yechimini o'quvchi mustaqil tanlaydi
Natija	Reproduktiv bilim (takrorlash)	Produktiv (ijodiy) faoliyat, yangi matn, g'oya yaratish

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki, an'anaviy darslarda o'quvchi ko'proq tayyor bilimni eshitib, uni qayta aytish bilan cheklanadi, mustaqil ta'limga asoslangan yondashuvda esa o'quvchi o'zi izlanadigan, savol beradigan, matn yaratadigan faol subyektga aylanadi. Shu bois, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan nazariy qarashlarda mustaqil ta'lim asosiy shartlardan biri sifatida ko'riladi.

Tadqiqotlar kompetensiyaviy yondashuvni ona tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan muhim metodik omil sifatida baholaydi. Bu yondashuv o'quvchining nafaqat bilimini, balki o'sha bilimni amaliy vaziyatda qo'llay olish qobiliyatini ham markazga qo'yadi.

Quyidagi jadval ona tili fanida kompetensiyaviy yondashuv asosiy komponentlarini ko'rsatadi.

2-jadval: Ona tili fani kompetensiyalari

Kompetensiya turi	Qisqacha mazmuni
Nutqiy kompetensiya	Fikrni og'zaki va yozma ravishda aniq va to'g'ri ifodalash
Axborot bilan ishlash kompetensiyasi	Turli manbalardan ma'lumot izlash, tahlil qilish
Kommunikativ kompetensiya	Muloqotga kirishish, fikr almashish, bahsda ishtirok etish

Muammolarni hal qilish kompetensiyasi	Vaziyatni tahlil qilish, yechim taklif etish
Ijodiy kompetensiya	Yangi matn, g'oya, nutqiy mahsul yaratish

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar mustaqil fikr bildirish, matn yaratish, muammoli vaziyatlar bo'yicha o'z pozitsiyasini asoslab berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, bu yondashuv bilimni tayyor shaklda berishdan ko'ra, o'quvchini izlanish, tahlil va ijodkorlik faoliyatiga jalb qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar tahlili shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi o'quvchilarning individual imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda juda muhim ekanini ko'rsatadi. Bu yondashuvda har bir o'quvchining qiziqishi, tayyorgarlik darajasi, shaxsiy tajribasi hisobga olinadi va topshiriqlar ham shunga moslashtiriladi.

Quyidagi jadval shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda qo'llanadigan ijodiy yozma faoliyat turlarini jamlaydi.

3-jadval: Shaxsga yo'naltirilgan ijodiy yozma faoliyat:

Faoliyat turi	Mazmuni va ta'siri
Ijodiy yozuv	O'quvchi erkin mavzuda matn yozadi, shaxsiy tajribasini ifodalaydi
Esse	Muammoli savolga shaxsiy pozitsiyani yozma bayon etish
Erkin matn yaratish	Berilgan rasm, vaziyat yoki kalit so'zlar asosida matn tuzish
Muammoli topshiriqlar	Bahsli masala bo'yicha matn yozish, yechimni asoslash

Bu faoliyat turlari o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, shaxsiy fikrini erkin bayon etish, mustaqil xulosa chiqarish hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchilarni tanqidiy va ijodiy qarashlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning motivatsiyasini ham kuchaytirishi ta'kidlanadi.

Ilmiy-metodik manbalar interfaol metodlarning mustaqil ta'lim bilan integratsiyasi ona tili darslarida yuqori samaradorlik berishini ko'rsatadi. Interfaol metodlar o'quvchini dars markaziga qo'yadi, muloqot, bahs-munozara, guruhviy ishlar orqali mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni faollashtiradi.

Quyidagi jadval interfaol metodlar va ularning ijodiy faoliyatga ta'sirini umumlashtiradi.

4-jadval: Interfaol metodlar va ularning ta'siri:

Metod nomi	Qisqacha tavsif	Ijodiy va mustaqil faoliyatga ta'siri
Bahs-munozara	Ma'lum mavzu bo'yicha fikr almashish	Erkin fikr bildirish, asoslash, qarama-qarshi fikrni tinglash
Aqliy hujum	G'oyalarni tezkor ilgari surish	Ko'plab g'oya taklif qilish, ijodiy tafakkurni faollashtirish
Klaster	G'oyalarni grafik tarzda guruhlash	Mantiqiy bog'lanishlarni ko'rish, matn rejasini mustaqil tuzish
Kichik guruhlar	3-5 nafar o'quvchi bilan guruhda ishlash	Hamkorlikda matn yaratish, mas'uliyatni bo'lishish
"Sinkveyn", "Freewriting"	Qisqa she'r, erkin yozuv texnikalari	Til bilan tajriba qilish, ijodiy yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar orqali o'quvchilarda erkin fikr almashish, muloqotga kirishish, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish ko'nikmalari shakllanadi. Bu metodlar darsda o'quvchi ishtirokini faollashtiradi, qaror qabul qilish, mas'uliyatni bo'lishish, guruhda ishlash kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Shu asosda, ona tili darslarida mazkur yondashuvlar birgalikda qo'llansa, nazariy jihatdan asoslangan, amaliy jihatdan esa o'quvchining ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan kuchli metodik tizim vujudga kelishi mumkinligi aniqlangan. Bu tizim o'quvchining o'qish, yozish, tinglab tushunish, muloqotga kirishish kabi nutqiy faoliyat turlarini uzviy bog'liq holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, ona tili darslarida mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish faqat bilimni mustahkamlash vositasi emas, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi muhim pedagogik omil ham hisoblanadi. Ayniqsa, mustaqil topshiriqlar, matn ustida individual ishlash, erkin yozuv va muammoli vaziyatlarga asoslangan mashqlar o'quvchini tayyor javobni qabul qiluvchi emas, balki fikr yurituvchi va yechim izlovchi subyektga aylantiradi.

Mavjud metodik qarashlar kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashganda bu jarayon yanada samarali bo'lishini ko'rsatadi, chunki bunday yondashuvda asosiy e'tibor bilim hajmiga emas, balki o'quvchining uni nutqiy va amaliy faoliyatda qo'llay olishiga qaratiladi. Shu ma'noda, ona tili darslarida mustaqil ta'lim asosida tashkil etilgan faoliyat o'quvchilarda matn yaratish, fikrni asoslash, til birliklaridan vaziyatga mos foydalanish va kommunikativ vazifalarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi ham mazkur muammoni hal etishda muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi, chunki bu yondashuv o'quvchining individual qiziqishi, tayyorgarligi va ijodiy salohiyatini hisobga olish imkonini beradi. Natijada esse, ijodiy matn, erkin yozuv, bahsli savollarga yozma munosabat bildirish kabi topshiriqlar o'quvchilarning nafaqat nutqini, balki mustaqil qarashi va ijodiy mushohadasini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, interfaol metodlarning mustaqil ta'lim bilan integratsiyasi alohida e'tiborga loyiq, chunki bahs-munozara, aqliy hujum, klaster va kichik guruhlarda ishlash kabi metodlar o'quvchini faol muloqot va hamkorlikka olib kiradi. Bunday metodlar orqali o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalash, boshqalarning qarashlarini tahlil qilish, muqobil yechimlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarishga odatlanadi.

Shu bilan birga, tahlillar yana bir muhim holatni ko'rsatadi: ko'plab tadqiqotlarda mustaqil ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv yoki interfaol metodlar alohida-alohida yoritilgan bo'lsa-da, ularning aynan ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yagona metodik tizim sifatidagi integratsiyasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Demak, ushbu tadqiqotning dolzarbligi ham shunda ko'rinadiki, u mustaqil ta'limni ijodiy faoliyat bilan bog'liq holda, kompetensiyaviy va interfaol yondashuvlar bilan uyg'un metodik tizim sifatida asoslashga xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy manbalar, pedagogik yondashuvlar va metodik qarashlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ona tili darslarida mustaqil ta'limni tashkil etish o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim nazariy-metodik omil sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy ta'lim shakllarida o'quvchi asosan tayyor bilimni qabul qiluvchi sifatida qatnashsa, mustaqil ta'limga asoslangan yondashuvlarda uning faolligi, tashabbuskorligi, mustaqil qaror qabul qilishi va ijodiy mushohadaga kirishishi uchun keng sharoit yaratilishi aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondashuv ona tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy metodik omillardan biri sifatida baholandi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda mustaqil fikr bildirish, matn yaratish, muammoli vaziyatlarga munosabat bildirish hamda til birliklaridan amaliy foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon berishi ilmiy qarashlar asosida asoslandi.

Adabiyotlar tahlili shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvining ona tili darslarida o'quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Ijodiy yozuv, erkin matn yaratish, esse va muammoli topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, erkin va tanqidiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar sifatida asoslandi.

Tahlillar interfaol metodlarning mustaqil ta'lim bilan integratsiyasi ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga keng imkoniyat yaratishini

ko'rsatdi. Bahs-munozara, aqliy hujum, klaster, kichik guruhlarda ishlash kabi metodlar o'quvchilarda erkin fikr almashish, muloqotga kirishish, hamkorlikda yechim izlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlashtirildi.

Umuman olganda, ona tili darslarida mustaqil ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va interfaol metodlarning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning nutqiy faolligi, kreativ tafakkuri hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samarali metodik tizim sifatida qaralishi mumkin degan xulosa qilindi. Shu bilan birga, mustaqil ta'limga asoslangan ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha kompleks metodik tizimni ishlab chiqish ona tili ta'limi metodikasining dolzarb ilmiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Almamatov, T., Yadgarov, Q. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 180 b.
2. Hasanova, D. Ona tili va adabiyot darslarida kompetensiyaviy yondashuvning amalga oshirilishi // Til va adabiyot ta'limi. – 2021. – № 2. – B. 57–64.
3. Abdirahmonov, Sh. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv: muammo va yechimlar // Pedagogik izlanishlar. – 2020. – № 4. – B. 33–40.
4. Ismoilova, G. O'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2019. – 216 b.
5. Aliyeva, N. Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodlari // Zamonaviy ta'lim. – 2020. – № 1. – B. 72–78. Dilshoda Jalilova Ural qizi, Shaxnoza Jalilova Ural qizi. MUAMMOLI TA'LIM - BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH VOSITASI SIFATIDA. "RAQAMLI TA'LIMNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA ULARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA TADBIQ QILISH YO'LLARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI 25-oktabr 2023-yil. 509-512-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10038453>
6. Qizi, Jalilova Dilshoda Ural, Rasulova Ruxshona, and Xudoyberganova Mohiza. "BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA FONETIK MASHQLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI." *Science and innovation* 3, no. Special Issue 36 (2024): 583-585.
7. Qizi, Jalilova Dilshoda Ural, Yusupova Gulsanam, Yaxshiliqova Madina, and Uzoqova E'Zoya. "SAVOD O'RGATISH DAVRI, UNDA FOYDALANILADIGAN METODLARNING QIYOSIY-TANQIDIY TAHLILI." *Science and innovation* 3, no. Special Issue 26 (2024): 720-722.
8. Qizi, Jalilova Dilshoda Ural, Ziyotova Dilso'Z, Yunusova Shaxnoza, and Yusufova Farangiz. "ONA TILI DARSLARIDA METOD VA VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI." *Science and innovation* 3, no. Special Issue 26 (2024): 716-719.